

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



**TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA**

YAKUNIY HISOBOT



TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI
nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60710500 – Elektr muhandisligi
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60710500 – Elektr muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. Umumiy ma'lumotlar

Ariza raqami	MAO260022
Xulosa raqami	665
Xulosa sanasi	26.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT QO'SHMA KORXONA
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 3A-uy. Litsenziya № 2854171, 20.06.2025-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Elektr muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60710500
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	PO'LATOV TAXIRJAN RUSTAMBEKOVICH

2. Huquqiy asoslar

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. Ta'lim dasturining umumiy tavsifi

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 2854171 / 20.06.2025
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60710500 - Elektr muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60710500 - Electrical Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60710500 - Электротехническая инженерия
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	Istanbul Teknik Üniversitesi
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus, ingliz, turk
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Elektr ta'minot muhandisi (elektr mashinalari va elektr apparatlari bo'yicha)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	500 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 3A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*	Muvofiq
1.2.	ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;	Muvofiq
1.3.	ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;	Muvofiq
1.4.	mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;	Qisman muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*	Muvofiq
2.2.	ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;	Muvofiq
2.3.	ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*	Muvofiq
3.2.	o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*	Muvofiq
3.3.	o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;	Muvofiq
3.4.	amaldagi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarning qo'llanilgani va tegishli samaradorlikka erishilgani;	—
3.5.	ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;	Muvofiq
3.6.	talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;	Qisman muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

I BOB. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (Muvofiq)

Ta'lim dasturini tashkil etish, boshqarish va sifatni ta'minlash bo'yicha universitet tomonidan yetarli darajada me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan tizimli yondashuv shakllantirilgan. Tarkibiy tuzilmalarning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari universitet nizomlari asosida belgilangan bo'lib, istiqbolli rivojlantirish rejalari oliy ta'lim tashkilotining strategik maqsadlari bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan; ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari istiqbolli rejada qamrab olingan. Shu bilan birga, ayrim hujjatlarda texnik va tashkiliy kamchiliklar (inventarizatsiya ma'lumotlarida aniqlik yetishmasligi, kafedralar shtat birliklari bo'yicha ma'lumotlarning to'liq aks ettirilmagani) hamda mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlarini tahlil qilish bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar ko'lamining yetarli emasligi qayd etildi.

II BOB. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (Muvofiq)

Ta'lim dasturining umumiy tuzilmasi, maqsadlari va kutilayotgan o'quv natijalarini shakllantirishda milliy hamda xalqaro yondashuvlardan foydalanishga intilish kuzatildi; o'quv rejasida nazariy bilim, amaliy mashg'ulot va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan elementlar mavjud bo'lib, dastur mehnat bozori ehtiyojlariga mos mutaxassis tayyorlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, malaka talablari tayanch OTM asosida, o'quv rejalari universitet kesimida, ayrim fan dasturlari esa xorijiy manbalar asosida shakllantirilgani sababli mazmuniy va metodik tafovutlar hamda kreditlar va soatlar taqsimotida nomutanosibliklar mavjudligi aniqlandi. Shu nuqtai nazardan, mutaxassislik va umumta'lim kafedralari hamkorligida barcha fan dasturlarini universitet ehtiyojlari, amaldagi malaka

talablari va zamonaviy mehnat bozori talablaridan kelib chiqib qayta ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

III BOB. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (Muvofiq)

Ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish, baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda o'quv natijalari va kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan mexanizmlarning mavjudligi kuzatildi; o'quv rejasida fanlarning mantiqiy ketma-ketligi hamda nazariy va amaliy komponentlarning uyg'unligini ta'minlashga intilish ijobiy baholanadi. Shu bilan birga, fan dasturlarining aksariyati universitet tomonidan qayta ishlab chiqilmagani va amaldagi malaka talablariga moslashtirilmagani sababli o'quv rejalari, malaka talablari va fan dasturlari o'rtasida ayrim nomutanosibliklar yuzaga kelgan. Bundan tashqari, amaliyot bazalarini kengaytirish, ishlab chiqarish va servis korxonalari bilan ikki tomonlama hamkorlik shartnomalarini kuchaytirish hamda baholash tizimi va akademik halollik siyosatining ijro va monitoring mexanizmlarini batafsilroq hujjatlashtirish tavsiya etiladi.

IV BOB. Talabalar faoliyati yo'nalishi (Muvofiq)

Ta'lim dasturiga qabul mezonlari va talablari aniq belgilangan bo'lib, ular universitetning ichki tartib-qoidalari, tegishli nizomlar va amaldagi qonunchilik asosida tashkil etilgan. Qabul natijalarini ochiq e'lon qilish, murojaat va apellyatsiya mexanizmlarining mavjudligi jarayonning shaffofligi va adolatliligini ta'minlaydi; talabalar mobilligi, kreditlarni tan olish hamda avvalgi ta'lim natijalarini e'tirof etish tartiblarining yo'lga qo'yilgani akademik moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, mavjud resurslar, xususan kutubxona fondining yo'nalishlar kesimidagi dolzarbligi va yetarliligini muntazam monitoring qilish hamda qabul parametrlarining amaliy samaradorligini tahlil qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiq.

V BOB. Inson resurslari yo'nalishi (Muvofiq)

Ta'lim dasturini malakali professor-o'qituvchilar bilan ta'minlash, ilmiy darajali kadrlarni jalb etish, xorijiy mutaxassislar ishtirokini kengaytirish hamda yangi pedagog kadrlarni tanlov asosida jalb qilish bo'yicha tizimli yondashuv mavjudligi kuzatildi; ilmiy maqolalar chop etish, innovatsion faoliyat va xalqaro loyihalarda ishtirokni rag'batlantirish mexanizmlari universitet ilmiy salohiyatini rivojlantirishga

xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagog kadrlar uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini yanada tizimlashtirish, kadrlar ehtiyojini tahlil qilish bo'yicha asoslovchi materiallarni kengaytirish hamda monitoring va samaradorlikni baholash mexanizmlarini aniqroq belgilash maqsadga muvofiq.

VI BOB. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (Muvofiq)

Universitetda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish uchun muayyan moddiy-texnik baza, axborot-kommunikatsiya vositalari, axborot-resurs markazi faoliyati hamda talabalar uchun qulay o'quv infratuzilmasi mavjudligi kuzatildi; o'quv xonalarida AKT vositalarining joriy etilgani, ARM o'quv zali faoliyati, sport infratuzilmasi hamda binolarning talabalar sig'imiga mosligi ijobiy baholanadi. Shu bilan birga, laboratoriyalar va maxsus xonalar jihozlanishi, elektron kutubxona fondining ta'lim dasturiga muvofiqligi, HEMIS/LMS platformalari, masofaviy ta'lim imkoniyatlari, "feedback" tizimi hamda inklyuziv ta'lim uchun yaratilgan maxsus resurslar bo'yicha daliliy ma'lumotlarni kengaytirish zarurati aniqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi. Ta'lim dasturi barcha baholash yo'nalishlari (boblar) bo'yicha "muvofiq" deb baholangan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Fan dasturlari (sillabuslar) universitet tomonidan mustaqil ishlab chiqilmagan va tegishli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanmagan; malaka talablari (tayanch OTM), o'quv reja (universitet kesimida) va fan dasturlari (xorijiy manbalar asosida) o'rtasida uzviylik hamda soatlar va kreditlar taqsimotida nomutanosiblik mavjud.
- ✓ Ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik va amaliyot bazalari tor – asosan bitta memorandum bilan cheklangan, ayrim bayonnomalar bir tomonlama tasdiqlangan.
- ✓ Axborot-resurs markazi va elektron kutubxona fondida mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv adabiyotlari ro'yxati keltirilmagan; sillabuslardagi tavsiya etilgan adabiyotlar mavjud fond bilan mos emas.

- ✓Ayrim bandlar bo'yicha (o'quv va laboratoriya xonalari hamda jihozlar, HEMIS/LMS va masofaviy ta'lim, "feedback" tizimi, inklyuziv ta'lim uchun AKT resurslari) tasdiqlovchi hujjatlar yetarli emas yoki takrorlangan.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓Malaka talablari, o'quv reja, fan dasturlari va sillabuslar o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash; mutaxassislik va umumta'lim kafedralari hamkorligida barcha fan dasturlarini universitet ehtiyojlari, amaldagi malaka talablari va mehnat bozori talablaridan kelib chiqib qayta ishlab chiqish va tasdiqlash.
- ✓Ishlab chiqarish va servis korxonalari bilan ikki tomonlama hamkorlik va amaliyot shartnomalari sonini kengaytirish; mehnat bozori tahlilida Respublika Statistika qo'mitasi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ochiq ma'lumotlaridan foydalanish.
- ✓Axborot-resurs markazi va elektron kutubxona fondini yo'nalishga mos zamonaviy mutaxassislik adabiyotlari bilan boyitish hamda ularni sillabuslarda tavsiya etilgan adabiyotlar bilan muvofiqlashtirish.
- ✓Raqamli ta'lim infratuzilmasi (HEMIS/LMS, masofaviy ta'lim, "feedback" tizimi), inklyuziv ta'lim resurslari va moddiy-texnik baza bo'yicha daliliy hamda statistik ma'lumotlarni tizimli ravishda hujjatlashtirish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Ta'lim dasturi bo'yicha o'tkazilgan kompleks tahlil natijalariga ko'ra, oliy ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslar shakllantirilgan. Ta'lim dasturining maqsad va vazifalari, qabul jarayonlari, professor-o'qituvchilar tarkibini shakllantirish hamda talabalar uchun zarur infratuzilmaviy sharoitlarni yaratish bo'yicha tizimli yondashuv mavjud bo'lib, o'quv jarayonlari, baholash tizimi, kadrlarni rivojlantirish mexanizmlari va axborot-resurs bazasini rivojlantirishga qaratilgan choralar universitetning institutsional salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash, o'quv dasturlarini universitet xususiyatlari va mehnat bozori ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta ishlab chiqish, zamonaviy mutaxassislik adabiyotlari bilan ta'minlash hamda raqamli ta'lim infratuzilmasi bo'yicha daliliy ma'lumotlarni kengaytirish zarurati aniqlandi. Barcha baholash yo'nalishlari (boblar) bo'yicha holat "muvofiq"

deb baholangani hamda aniqlangan kamchiliklarning akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmasligi inobatga olingan holda, ta'lim dasturi muvofiq deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05/06/2026-yil
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

